

TURKISTONDA JADIDLIK G'OYALARINI SHAKLLANISHI: TARIXIY- FALSAFIY TAHLIL

Isaqova Zamiraxon Ruhitdinovna
falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Namangan davlat universiteti
tel: +99 891 362 89 37 e-mail: ms.zamiraxonisaqova@gmail.com
Abdullaxo'jayev Adxamxo'ja Isaxo'ja o'g'li
mustaqil tadqiqotchi, Qo'qon universiteti
tel: +998 90 362 91 41 e-mail: adxamxojaabdullaxojaev@gmail.com

Annotasiya: Maqola Turkistonda jadidlik g'oyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishining tarixiy-falsafiy tahliliga bag'ishlanadi. Turkiston jamiyatida jadidchilik harakatining shakllanishiga olib kelgan tarixiy-ijtimoiy sabablar va omillar ko'rib chiqiladi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, islohotchilik harakatlari va milliy uyg'onish konsepsiyalari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Turkiston, tarixiy-falsafiy tahlil, milliy uyg'onish, Islom, G'arb madaniyati, ijtimoiy taraqqiyot, madaniyat, O'zbekiston.

ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕЙ СОВРЕМЕННОСТИ В ТУРЦИИ: ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Исакова Замирахан Рухитдиновна
Наманганский государственный университет
доктор философских наук, профессор
телефон: +99 891 362 89 37 электронная почта:
ms.zamirakhonisaqova@gmail.com

Абдуллахожаев Адхамхожа
Кокандский университет Исследователь,
телефон: +998 90 362 91 41 электронная почта:
adxamxojaabdullaxojaev@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена историко-философскому анализу возникновения и развития модернистских идей в Туркестане.

Рассматриваются исторические и социальные причины и факторы, приведшие к формированию модернистского движения в туркестанском обществе. джадидов, их отношение к идеям западного Просвещения, влияние западной культуры.

Ключевые слова: модернизация, просвещение, Туркестан, историко-философский анализ, национальное возрождение, ислам, западная культура, общественное развитие, культура, Узбекистан.

THE FORMATION OF THE IDEAS OF MODERNITY IN TURKEY: A HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Isakov Zamirakhan Ruhitdinovna

Namangan State University Professor

phone: +99 891 362 89 37 e-mail: ms.zamirakhonisaqova@gmail.com

Abdullakhojaev Adkhamkhoja

Kokand University Researcher

phone: +998 90 362 91 41 e-mail: adxamxojaabdullahojaev@gmail.com

Annotation: The article is devoted to the historical-philosophical analysis of the emergence and development of modernist ideas in Turkestan. The historical and social reasons and factors that led to the formation of the modernist movement in Turkestan society are considered.

Key words: modernization, enlightenment, Turkistan, historical-philosophical analysis, national revival, Islam, Western culture, social development, culture, Uzbekistan.

Kirish

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida, Turkistonda katta ijtimoiy-siyosiy kuch va yetakchi mafkura sifatida shakllangan jadidchilik harakati o'z o'rniga ega bo'lib, bu harakatning vujudga kelishida xorijiy mamlakatlardagi turli xil ilg'or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy oqimlarning ma'lum darajadagi ta'siri bo'lsa-da,

ammo bu uygʻonish harakatining yuzaga kelishini taʼminlovchi asosiy omil, mamlakatdagi mavjud vaziyat bilan uzviy bogʻliq edi. Jadidchilik harakatining yurtimiz tarixida toʻliq ochib berilmagan bir qancha qirralari mavjud ekanligini bugungi ilmiy tadqiqotlar koʻrsatib turibdi. Jadidchilik harakatning asl mohiyatini, maqsad-muddaolarini xolisona oʻrganish va baholash oʻz yechimini kutayotganligini uni gʻoyaviy muxoliflar yaqin kunlargacha jadidchilikni faqat maʼrifatchilik harakati deb baholab keldilar. Maqsad – jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan utopik qarashlarni mahsuli edi, xolos. Shuning uchun ham gʻoyaviy muxoliflar jadidchilik harakatining burjua liberal, millatchilik harakati, mayda burjua ideologiyasini ifodalovchi oqim sifatida qarab kelingan edi.

Millat islohi amalga oshirishga bel bogʻlagan jadidlarning ilgʻor qismi mahalliy aholini jahonning taraqqiy etgan davlatlarida boʻlayotgan oʻzgarishlar va yangilanishlardan xabardor qilib borish lozimligini yaxshi anglaganlar. Oʻzlariga maʼrifatparvarlar deb nom bergan yangilik tarafdorlarini davr nuqtai nazaridan jadidlar deb eʼtirof etila boshlandi. Jadidshunos olim, professor Begali Qosimov: “jadidchilik oqim yemas, harakatchilik. Ijtimoiy, siyosiy, maʼrifiy harakatchilik. Jadidchilik:

1) jamiyatning barcha qatlamlarini oʻz maqsadlari sari jalb eta oldi va Milliy Uygʻonish mafkurasi boʻlib uzoq yillar gʻaflat uyqusida yotgan millatni harakatga kelishiga xizmat qildi;

2) ham iqtisodiy, ham siyosiy mustaqillik uchun kurash olib bordi. Jadidlar gʻayrati va tashabbusi boʻlgan Turkiston muxtoriyati harakatning amaliy natijasi edi;

3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi” [1].

Adabiyotlar tahlili

Jadidchilik falsafasi va uning mazmun mohiyatini keng jamoatchilik ommasiga yetkazishda bir qator olim va mustaqil izlanuvchilar faol ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, amerikalik E.Olvort, fransiyalik A.Benningson, germaniyalik I.Baldauf [2], orleanlik professor E.Lazzeri, yaponiyalik H.Komasu kabi sharqshunos, tarixchi olimlarning jadidshunoslikka oid tadqiqotlarida u yoki bu tarzda bayon etilgan. MDH davlatlarida A.Maniyozov, G.Ashurov, M.Shukurov, O.Sayfullaev, R.Hodizoda, A.Mirahmedov, I.Nurillin kabi tadqiqotchi va olimlar jadidlarni adabiy-tarixiy faoliyatini tadqiq qilgan. Biroq, tadqiqotlarda jadidlar va jadidchilik harakati shakllanishining ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlari, bu harakatning g'oyaviy, ijtimoiy-falsafiy asosi, davlatchilik va boshqarishga oid ilmiy merosi, ularning farovon turmush, oila, nikoh, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ijtimoiy borliqni takomillashtirishga oid qarashlari deyarli o'rganilmagan. O'zbekistonlik tarixchi olimlardan D.Alimova [3], D.Rashidova, D.Ziyaeva, R.Sharipov, R.Shamsuddinov, Q.Rajabov, H.Sodiqov, adabiyotshunoslardan A.Aliev, B.Qosimov, B.Nazarov, B.Do'stqoraev, I.Sulton, M.Xudoyqulov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, P.Ravshanov, S.Qosimov, Sh.Rizaev, E.Karimov, G'.Maxmudov, H.Boltaboyevlar tomonidan tarixiy va adabiy jihatdan tadqiq etilgan. Jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari faylasuf olimlardan A.Jalolov, A.Aliyev, G.Maxmudova, J.Yaxshilikov [4], Z.Ahrorova, N.Avazov, S.Ahmedov, U.Dolimov, Sh.Turdiyev, E.Yusupov, H.Saidov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, Professor B.Qosimov: "Jadidchilik ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy harakatdir. Shuning uchun ijtimoiyki, u jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi, milliy uyg'onish ideologiyasi bo'lib xizmat qildi [5]. Tukiston jadidchiligiga yangicha ruh va kayfiyat bilan kirib, unda namuna olishimiz lozim bo'lgan bir qancha jarayonlar borligini olima Z.Isaqovaning Ibrat domla xususida yozgan bir qator maqola va izlanishlaridan ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi

Turkiston ma'rifatparvalik harakatini quyidagi metodlar orqali aniq va izchil tarzda yoritish mumkin bo'ladi:

- ✓ Falsafiy tahlil: jadidlarning asarlari, maqolalari, xatlari, kundaliklarini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, ulardagi asosiy falsafiy g'oyalar, tamoyillar, tushunchalarni aniqlash imkonini beradi;
- ✓ Tarixiy-falsafiy kontekst tahlili: ma'rifatparvarlik g'oyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishidagi falsafiy kontekst, o'sha davrning falsafiy oqimlari, g'oyalari bilan aloqasini o'rganish, jadidlarning falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash imkonini beradi;
- ✓ Taqqoslama-falsafiy tahlil: Jadidchilikni boshqa falsafiy oqimlar, ma'rifatchilik, milliy uyg'onish harakatlari bilan taqqoslash, o'xshashliklar va farqlarni aniqlash, jadicilikning o'ziga xos falsafiy xususiyatlarini aniqlash bilan muhim masalalar yanada oydinlashadi;
- ✓ Germenevtika: Jadidlarning asarlarini, xatlarini, ishlarini chuqurroq tushunish maqsadida ularning kontekstini, ma'nolarini aniqlashga xizmat qiladi;

Tahlillar va natijalar

Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalarining rivojlanishi asosan XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu davrda, Osiyoning boshqa mintaqalaridagi kabi, Turkistonda ham g'oyaviy va ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tadqiqotlarga ko'ra jadicilik harakatida quyidagi uchta bosqichdan iborat:

- 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma'rifatchilik;
- 2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik;
- 3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Dastlabki davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o'rnashib olishi kuzatiladi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy ye'tiqodlari, urf-odatlar bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo'rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirishgacha borildi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy sohadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidchilik harakati ma'rifatchilikning tor doirasidan faoliyat boshlab, bu harakat siyosiy harakatga aylanib, o'z oldiga jamiyat va uni boshqarishni qayta qurishdek ulkan vazifalarni qo'yganligi, ular avval boshda o'zlarining g'oyaviy qarashlarini harakat dasturlarini shakllantirib, o'zlarining siyosiy partiyalarini tuzganligi asos qilib olingan. Jumladan, jadidchilikda Tataristonda "Musulmon ittifoqi", Turkistonda "Sho'roi islomiya" Buxoroda "Yosh buxoroliklar", Xivada "Yosh xivaliklar" kabi inqilobchilar partiyalari yuzaga keldi. Jadidlar harakat dasturining harakatchanligi kuchayib borishining va siyosiy tus olganligining ikki asosi mavjud bo'lib:

birinchidan, 1914-1915 yillarda jadidchilik boshidan kechirgan inqiroz — gazetalar va yangi usul maktablarining berkitilish hollari, hokimiyat jadidlarning bilimsizlik va g'aflatga qarshi kurash g'oyasini kengaytirishiga yo'l bermasligi, shuningdek, busiz jamiyatda hech qanday o'zgarishlarga erishib bo'lmasligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, jadidchilik harakatiga xorijda o'qib, chet eldagi milliy taraqqiyparvar harakatlar tajribasini o'rganib qaytgan, yosh kuch oqimi kelib

qo'shildi. Ular madaniylashtirish doirasida cheklanib qolmay, aniq siyosiy vazifalar qo'yishni talab qildilar. Soliqlarni kamaytirish, amaldorlar zulmini cheklash, dehqonlar hayotini yengillashtirish – shu talablar jumlasidan edi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar yedi:

Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod yetish shariatni isloh qilish xalqqa ma'rifat tarqatish;

Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo yetish uchun kurash;

Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;

barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish kabilar. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hurfikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Biz bu sohada amalga oshirayotgan tadqiqotlardagi quyidagi falsafiy yondoshuvlar dolzarb deb hisoblaymiz:

Jadidchilik harakatining falsafiy asoslarini aniqlash, hozirgi kundagi tadqiqotlar jadidchilik harakatining falsafiy asoslarini chuqurroq tahlil qilishga e'tibor qaratmoqda. Jadidlarning ma'rifatchilik, islohotchilik, milliy uyg'onish, islom dini va falsafasiga bo'lgan munosabati, g'arb falsafiy ta'sirlarini o'rganish – bular tadqiqotlardagi asosiy masalalardir.

Jadidchilik g'oyalarining milliy o'zlikni anglashdagi rolini falsafiy talqin qilish, tadqiqotlarda milliy o'zlik tushunchasining jadidchilikdagi falsafiy ta'biri, milliy madaniyat, til, tarixning ahamiyati haqidagi falsafiy fikrlarni aniqlashga e'tibor qaratiladi. Jadidchilikning falsafiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish va

tadqiqotchilar jadidchilik g'oyalarining Turkiston jamiyatidagi falsafiy tafakkur, madaniy o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bo'lgan ta'sirini chuqurroq o'rganmoqdalar. Jadidchilikning hozirgi kundagi falsafiy aktualligini baholash va tadqiqotlarda jadidlarning inson huquqlari, demokratiya, tenglik, ta'limning ahamiyati, ilm-fan va texnologiyalarning taraqqiyoti haqidagi fikrlarining hozirgi kundagi dolzarbligi ko'rsatiladi.

Xulosa

Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalari, asosan, yangi ta'lim tizimlarining shakllanishiga, zamonaviy madaniyat va san'atning rivojlanishiga olib keldi. Bu g'oyalar, kelajak avlodlarga ta'lim berish va ularni ma'rifatga yo'naltirishda muhim rol o'ynadi. Turkistondagi ma'rifatparvarlik g'oyalari o'ziga xos falsafiy kontekstda shakllangan bo'lib, o'zbek xalqining madaniy va falsafiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Turkistonda ma'rifatparvarlik g'oyalari tarixiy va falsafiy jihatdan qiyin davrda shakllangan bo'lsada, millat oydinlari xalqning bilimga bo'lgan intilishini, ta'lim va madaniyatga e'tibor qaratish zarurligini bot-bot ta'kidlashdan charchamadi. Bu g'oyalar, kelajakda xalqning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'rifatparvarlik harakati, Turkistonda yangi g'oyalar va yondashuvlar uchun asos yaratdi, bu esa, o'z navbatida, xalqning taraqqiyotiga zamin yaratdi. Zero, Yangi O'zbekiston jadidlar orzu qilgan chinakam ma'rifatli jamiyat bo'lishi ta'lim va tarbiyaning uzviyligi uning tarixiy, milliy, diniy qardiyatlarimiz bilan sug'orilgan g'oyalarni ilgari surish va amalga oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. - Т.: Фан ва технология, 2008. В-62
2. Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001).

- 3.Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Тошкент: Фан, 1996.
- 4.Яхшиликов Ж. Жаидчилиқ ва Беҳбудий. –Тошкент: “Фан”, 2004.
- 5.Qosimov Begali. Milliy uygʻonish - T: Maʼnaviyat. 2002.
- 6.Исҳоқова З. Исҳоқхон Тўра Ибрат–Тошкент: “Ғафур Ғулом” 2018. – 168 б.